



TALABALARINI BOSHQARUVCHILIK FAOLIYATIGA TAYYORLASH ZARURIYATI

O'rinova Feruzaxon Uljayevna

maktabgacha ta'lim kafedrası dots.nti, p.f.n

Qodirova Gulnozaxon Rahmatjon qizi

magistrant

Farg'ona davlat universiteti

furinova3@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7943613>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-May 2023 yil

Ma'qullandi: 15-May 2023 yil

Nashr qilindi: 17-May 2023 yil

KEY WORDS

*Boshqaruv, tarbiyachi,
pedagogik boshqaruv,
pedagogik mahorat,
innovatsion boshqaruv, inson
omili, menejer, pedagogik
texnika, pedagogik
kvalimetriya, Antropologik
bilimlar.*

ABSTRACT

Amaliy pedagoglarning o'z boshqaruv texnologiyasini ishlab chiqish va amalga joriy etish borasidagi ishi ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada talabalarini boshqaruvchilik faoliyatiga tayyorlash zaruriyati muammolari haqida so'z yuritiladi.

Jahon amaliyotida ta'lim jarayonining rivojlanishiga ko'maklashuvchi va ta'lim muassasasi sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarilishiga yordam beruvchi boshqaruvni amalga oshirish masalasi kun tartibiga qo'yilgan. Yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda pedagogik jarayon, ta'lim oluvchi, o'qituvchining kasbiy va shahsiy fazilatlarini va boshqaruv faoliyati mazmunining rivojlanishini ta'minlovchi boshqaruv zarur.

"Boshqaruv" tushunchasi odatda tizimni bir holatdan yanada sifatliroq boshqa holatga o'tkazish, ya'ni muttasil rivojlanish sifatida tavsiflanadi. Ta'lim sohasida normativ hujjatlarda o'z aksini topgan muayyan siyosatsiz rivojlanishga erishish mumkin emas.

Boshqaruv inson miyasiga taqqoslanadi, bo'nda shahsning yaratuvchilik imkoniyatlari mujassamlangan, undan uning ijodiy qobiliyati namoyon etilishiga ko'rsatma beriladi.

Rivojlantiruvchi boshqaruv zamirida subyekt-subyekt munosabatlari yotadi. Ilmiy-pedagogik adabiyotlarda boshqaruvning mazkur usuli "pedagogik boshqaruv" deb ataladi. Mazkur atama Yu.V.Vasilev tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan.

Pedagogik boshqaruvni ba'zan demokratik boshqaruv deb ataydilar. Bunda demokratiya omilini xodimlarga e'tibor sifatida tushunadilar. Bu boshqaruvning kollektiv usullarini nazarda tutadi. Ba'zi bir asarlarda "innovatsion boshqaruv" atamasi qo'llaniladi.

Pedagogik hodisalar va jarayonlarni boshqarish pedagogiyalashtirilishi lozim, chunki bu yerda gap "inson – inson" munosabatlari haqida boradi. Ta'lim muassasasini pedagogik tizim sifatida boshqarish borasidagi kasbiy faoliyatning mazmuni shu bilan belgilanadiki, uni rahbar va uning o'rinbosarlarigina emas, balki har bir pedagog va o'quvchilar pedagogik

jarayon subyektlari sifatida amalga oshiradilar.

Pedagogik boshqaruv natijaga qarab mo'ljallanish olish bilangina kifoyalanmaydi, u pedagogik hodisaga jarayon sifatida yondashadi. Boshqaruv – yangi g'oyalar uchun ochiq faoliyat. U o'z mohiyatiga ko'ra innovatsiondir. Har bir rahbar yoki pedagog pedagogik boshqaruv san'atida muttasil takomillashuvi mumkin. Hech kimni samarali rahbar bo'lishga o'rgatish mumkin emas. Buning uchun ta'lim oluvchining shahsiy ishtiroki, uning jiddiy nazariy ishga tayyorligi talab etiladi.

Vazifalarning ko'pligi va murakkabligi o'z vaqtida sifatli qarorlar qabul qilish uchun menejerlarning javobgarligini kuchaytiradi. Mamlakat oldida to'rgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish vazifasi inson omili muammolariga alohida e'tibor berish zaruriyatini belgilaydi.

"Inson omili" – keng, kompleks, umumiy tushuncha. Unga turli fanlar – boshqaruv, iqtisod, psixologiya, demografiya va hokazolar nuqtai nazaridan yondashish o'rinli bo'ladi. Hozirgi davrda inson omili sohasida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi va yuz bermoqda. Chunonchi, odamlarning ma'lumot, madaniyat va kasbiy darajasi, ularning huquqiy va shahsiy ongi, habardorlik darajasi o'sdi, hayotning moddiy sharoitlari o'zgardi, boshqaruvda demokratik asoslar yanada chuqorlashdi. Rahbar o'z amaliy faoliyatida bu omillarning har birini hisobga olishi lozim.

Rahbarning zamonaviy fikrlashi nuqtai nazaridan eng muhimi har tomonlama o'ylash va harakat qilishdir. Hususiy boshqaruv tizimi zarur.

Shu ma'noda amaliy pedagoglarning o'z boshqaruv texnologiyasini ishlab chiqish va amalga joriy etish borasidagi ishi ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Insoniyat tomonidan fan-texnika, iqtisodiyot va ijtimoiy muvafaqqiyatlar tobora oshirilib borishiga ko'ra boshqaruv faoliyatining ilmga bo'lgan talabi ham to'xtovsiz o'sib boradi. Bunday ilmiy yondashish ehtiyojini quyidagi holatlar bilan izohlash mumkin:

- Birinchidan, boshqaruvning nodir xususiyati: biror yo'qdan muayyan nimanidir qilish, tarqoq unsurlardan tizim tuzish.
- Ikkinchidan, rahbar tasarrufida bo'lgan yoki u javobgar hisoblangan qadriyatlar ko'lamining jadal oshishi.
- Uchinchidan, insonlar kuch-g'ayratiga asoslangan boshqaruvning yaratuvchilik samarasi rahbariyatdan har tomonlama ma'lumotlilik, o'z kasbini ustasi bo'lishlik va tizimli yondashishni talab qiladi.

Boshqaruv faoliyati o'z mohiyati va xususiyati bo'yicha jamiyat hayotida aqliy tartibga solish ahamiyatga ega.

Ma'muriy rahbarlar boshqaruv bo'yicha kuch-g'ayratining uchdan ikki qismini o'z xodimlari orqali amalga oshiradi, ya'ni ularning qadr-qimmatini maqsadni ko'zlash, xodimlarni ishga jalb eta bilish, jamoadagi o'zaro munosabatni belgilay bilish iqtidori bilan o'lchanadi.

Boshqaruvning asosiy tamoyillari quyidagicha:

- ☑ vakolatlilik – lozim vakolatini malakali bajarish uchun zarur bilim, tajriba va o'quvga ega bo'lish;
- ☑ insonparvarlik – xizmat hulqidagi insonni sevish va ezgu ahloqiy hislat, odamlardagi eng yahshi shahsiy ishga qobillik sifatlarini ochishga intilish;
- ☑ innovatsiyaviylik - yangilikni izlash, unga intilish ishtiyoqi, asosli tavakkal qila bilish qobiliyati.

Ko'pchilik rivojlangan mamlakatlarning oliy ta'lim muassasalarida va biznes bilan bog'liq barcha biznes-maktablarda ixtisoslashtirilgan insonshunoslik fanlari o'qitiladi: sanoat psixologiyasi, ishlab chiqarish sotsiologiyasi, tadbirkorlik odobi, ishbilarmonlik iqtidori va b. Ko'pchilik universitetlarda shoirlar, rassomlar, madaniyat arboblarning ma'ruzalari rejalashtirilgan.

Menejering insonshunoslik ma'lumoti, bo' antropologik bilimlar tizimi bo'lib, uning mentaliteti faoliyatining so'zlar yordamida obraz yaratish negizi hisoblanadi.

Antropologik bilimlar (odamning kelib chiqishi va evolyutsiyasi, jismoniy tuzilishi va irqning paydo bo'lishi haqidagi fan), menejerga o'z kasb vazifasini bajarish jarayonida odamlar bilan muloqotda bo'lish va birgalikda harakat qilish, shahsiy ishbilarmonlik sifatlarini namoyon eta bilish va eng yahshi kasbiy natijalarga erishish uchun zarurdir. Bo'lar ayniqsa ta'lim, servis, tibbiyot, savdo va tadbirkorlik kabi faoliyat sohalarida katta ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim jarayonini boshqarish - bu ta'lim jarayoni miqyosida amalga oshiriladigan rahbar organlari, muassasa ma'muriyati hamda jamoat tashkilotlarining iqtisodiy va ijtimoiy natijalariga erishishni ko'zda tutgan holda kishilar jamoasiga, shu orqali ta'lim jarayonining moddiy-buyum unsurlariga, ularning o'zaro amal qilishini uyushtirish uchun aniq maqsad yo'nalishida tartibli ta'sir ko'rsatishdir.

Obyektiv dunyo ikki sohadan: jonli va jonsiz tabiatdan tashkil topgan. Har ikkala soha doimo rivojlanishda va harakatda bo'ladi. Shu sababli ular boshqarishga muhtojdir. Shunga binoan boshqaruv ham ikkita asosiy turga bo'linadi:

- Jonli tabiatni boshqarish;
- Jonsiz tabiatni boshqarish.

Boshqarishning bu turlaridan har biri, o'z navbatida, bir necha hillarga bo'linadi. Masalan, jonli tabiatni boshqarish:

- Jamiyatni boshqarish;
- Jamiyat tashkilotlarini boshqarish;
- Ta'lim jarayonini boshqarish;
- Xodimlarni boshqarish kabilar.

Har qaysi sohada o'zining boshqariluvchisi "obyekt" va boshqaruvchisi "subyekt" ga ega bo'ladi.

Boshqariluvchi yoki boshqaruv obyekti ko'p qirrali ta'lim jarayoni bo'lib u:

- Moddiy va texnik tayyorgarlik (asosiy va aylanma fondlar);
- Tashkiliy mehnat tayyorgarligi (kadrlarni tanlash, ishga qabul qilish, joy-joyiga qo'yish, o'qitish va h.k);
- Ta'lim xizmatini ko'rsatishni tashkil qilish (ta'lim berish- bilim va ko'nikmalarni faoliyat mazmuni va to'rlarini egallashini ta'minlash);
- O'quv jarayoni va uni amalga oshirishni o'z ichiga oladi.

Boshqaruvchi yoki boshqaruv subyekti - bir bir guruh kishilar hamda boshqaruv organlaridan iborat bo'lib, turli shakllar, usullar va texnik vositalar yordamida boshqariluvchi obyektga ta'sir o'tkazadi. Boshqarish obyektlari bo'lmasa, uning subyektlari ham bo'lmaydi. Demak, boshqaruv ichki tizimning negizida boshqaruvchi kichik tizim yotadi.

Ta'lim tizimi muhitida boshqarish faoliyatining asosiy maqsadi - bu ta'lim berish samaradorligini oshirish va sifatli mutaxassislar tayyorlashdir. Sifatli mutaxassislar

tayyorlash bir qator quyidagi omillarga bog'liqdir:

- innovatsiya samardorligi;
 - mutaxassislar sifati va uning raqobatbardoshligi;
 - tezkor va samarali qarorlarni qabo'l qilish;
- o zamonaviy ta'lim texnologiyalarni joriy qilinish darajasi.

Demak ta'lim jarayonini boshqarish bevosita ta'lim jarayoniga ta'sir qiluvchi tashqi va ichki omillarni boshqarish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Chunonchi:

1. O'qituvchilarni;
2. Ta'lim berish vositalarini;
3. Ta'lim berish samaradorligini;
4. Mutahassilar sifatini;
5. Innovatsiyalarni samardorligini;
6. Innovatsion jarayonni boshqarish va h.k.

Xulosa qilib aytganda, qayd etilgan obyektlarni boshqarish dastlab rejalashtirishdan boshlanib, ishlab chiqarishni tashkil qilish, uni tartibga solish, muvofiqlashtirish bilan davom ettirilib, nazorat bilan tugaydi. Bu yerda rag'batlantirish ishlab chiqarishni boshqarishning barcha funksiyalari jarayonida o'z aksini topadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'ljayevna O. F. Et al. Innovatsion texnologiyalar yordamida bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy salohiyati samaradorligini oshirish yo'llari //Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali. – 2023. – t. 3. – №. 3. – c. 311-315.
2. Urinova F., Azizmatova z., Fazliddinova s. Didactic foundations for forming the professional competence of the future teacher. //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – т. 3. – №. 4 part 4. – c. 197-202.
3. O'rinova f. Innovative reforms in the modern preschool education system //Science and innovation. – 2023. – т. 2. – №. B2. – c. 557-561.
4. Уринова Ф. У. Особенности развития психологии ребёнка дошкольного и младшего школьного возраста //Science and innovation. – 2022. – т. 1. – №. B2. – c. 68-71.
5. Uljaevna u. F. Et al. Necessary conditions for the development of creative thinking in future teachers //Modern journal of social sciences and humanities. – 2022. – т. 4. – c. 444-448.
6. Uljayevna o. F. Et al. Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy salohiyatini takomillashtirishda ilmiy faoliyatga tayyorlashning metodik tizimi //Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – c. 660-667.
7. Uljayevna u. F. Et al. Creolized texts, their features and possibilities //Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – c. 668-673.
8. Uljayevna U. F. The activity of developmental centers in the formation of children's abilities //Science and innovation. – 2022. – т. 1. – №. B2. – c. 107-110.
9. Uljayevna O. F. Et al. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarini maktabga tayyorlash tamoyillari //Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – c. 654-659.
10. Uljaevna U. F. Et al. Development of creative activity of preschool children in art game as a psychological and pedagogical problem //Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – c. 47-51.
11. Usmonova Shaxnoza Yoqubjon qizi. THE CONCEPT OF COSMONICS AND ITS NATURE".

International Conference on Studies in Humanity, Education and Sciences Helsinki, Finland. ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 2, January 10th 2022

12. Urinova Feruza Uljayevna, Valiyeva Hojirakhon Ilhomjon kizi. Development of intellectual abilities of preschool children. Through developing technologies. Modern journal of social sciences and humanities. Issn:2795-4846.Vol.4/(2022).

13. Uljaevna U. F. et al. NECESSARY CONDITIONS FOR THE DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING IN FUTURE TEACHERS //Modern Journal of Social Sciences and Humanities. – 2022. – Т. 4. – С. 444-448.

14. Уринов Рустамбек Ёкубжонович. Специфика англоязычной технической документации в сфере информационных технологий. Science and innovation. International scientific journal volume 1 issue 7 uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337

